JADID NASRIDA AYOL OBRAZI VA UNING IJTIMOIY MAQOMI MASALASI

Akbarova Elinur Akbar qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadid nasrida ayol obrazining badiiy talqini hamda uning ijtimoiy maqomi masalasi yoritiladi. Jadid adabiyotida xotin-qizlar taqdiri jamiyatdagi jaholat, savodsizlik, majburiy nikoh, oilaviy tengsizlik, ayolning o'z taqdirini mustaqil belgilay olmasligi kabi ijtimoiy muammolar bilan bog'liq holda tasvirlangani tahlil qilinadi. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari hamda Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va Kunduz", "Qor qo'ynida lola", "O'ktabr qizi" kabi asarlaridagi Kumush, Zaynab, Ra'no, Zebi, Qurbonbibi, Sharofatxon va Vannaycha obrazlari misolida jadid adiblarining ayolga munosabati ochib beriladi. Maqolada ayol obrazi jadid nasrida faqat oilaviy munosabatlar doirasidagina qahramon emas, balki davrning ijtimoiy-ma'naviy muammolarini ifodalovchi badiiy vosita ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, jadid nasri, ayol obrazi, ijtimoiy maqom, xotin-qizlar, ma'rifat, jaholat, savodsizlik, erksizlik, Kumush, Zaynab, Ra'no, Zebi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlar o'zbek adabiyotining mazmuni va badiiy yo'nalishida ham yangi jarayonlarni yuzaga keltirdi. Bu davrda shakllangan jadidchilik harakati vakillari xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, milliy ongni uyg'otish, jamiyatdagi jaholat va qoloqlikni bartaraf etish, milliy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan ma'naviy muhitni shakllantirish kabi masalalarni o'z faoliyatining muhim yo'nalishlariga aylantirdilar. Milliy uyg'onish davri adabiyoti ham ana shu ijtimoiy va ma'rifiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi[1]. Jadid adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri inson va jamiyat munosabatining badiiy tasvirga olib kirilganidir. Adiblar jamiyatdagi muammolarni abstrakt tarzda bayon qilish cheklanmay, ularni aniq inson taqdiri orqali ko'rsatishga intildilar. Ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularning ta'lim olish imkoniyatidan mahrumligi, oilaviy hayotdagi huquqsizligi, majburiy nikoh va erta turmush kabi muammolar jadid nasrida alohida o'rin egalladi. Tadqiqotchilar ham milliy uyg'onish davri adabiyotida ayollar taqdiri, jaholat va savodsizlik masalalari muhim mavzulardan biri bo'lganini qayd etadilar[2]

Ayol masalasining adabiyotga kirib kelishi tasodifiy hodisa emas edi. Chunki oila va jamiyatning ma'naviy holati, kelajak avlodning tarbiyasi ham bevosita ayolning mavqei bilan bog'liq edi. Shu sababli jadid adiblari ayol taqdirini tasvirlash orqali aslida jamiyatning umumiy holatini ko'rsatdilar. Ayolning savodsizligi, uning fikri va xohishining inobatga olinmasligi, turmush masalasida mustaqil qaror qabul qila olmasligi kabi holatlar jamiyatdagi umumiy tanazzul belgisi sifatida talqin qilinganligini nafaqat jadid adabiyotlarida balki o'sha davr adabiyotlarida ham guvohi bo'lamiz. Mazkur masala Abdulla Qodiriy va Cho'lpon ijodida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi Kumush va Zaynab, "Mehrobdan chayon" romanidagi Ra'no, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi hamda uning hikoyalaridagi Sharofatxon va boshqa ayol obrazlari orqali o'zbek ayolining o'sha davrdagi hayoti, ruhiyati va jamiyatdagi mavqei turli qirralarda ochib beriladi.

---

[1] Qosimov B. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2004

[2] Ismoiljonova N. " Jadid adabiyotida ayollar obrazi (Cho'lpon asarlari asosida)" // *TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali.* – 2024. – 31-son, 1-qism. – B. 22-27

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida ayol masalasi, avvalo oilaviy munosabatlar va insonning shaxsiy baxti bilan bog’liq holda namoyon bo’ladi. Asarning markaziy ayol obrazlaridan biri Kumush bo’lib, u o’zining go’zalligi, odobi, sadoqati, aql-zakovati va nozik ruhiyati bilan ajralib turadi. Kumush oddiygina muhabbat qahramoni emas, balki o’z davrining axloqiy va ijtimoiy muhitini o’zida aks ettiruvchi obrazdir. Qodiriy uning taqdiri orqali ayolning oiladagi o’rni, uning shaxsiy istaklari va jamiyatning unga qo’yadigan talablari o’rtasidagi ziddiyatni ko’rsatadi[3]. Kumushning Otabek bilan munosabati samimiy muhabbatga asoslangan bo’lsa-da, ularning baxti ijtimoiy muhit ta’siridan xoli emas. Otabekning boshqa ayolga uylanishi natijasida Kumush hayotiga kundoshlik muammosi kirib keladi. Bu holat ayolning o’z oilaviy hayotini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega emasligini ko’rsatadi. Kumush Otabekni sevadi, oilasiga sodiq bo’ladi, o’zining odobi va sabri bilan ko’pchilikka namuna bo’ladi, biroq uning taqdiri ustidan o’zi to’liq nazorat qila olmaydi. Kumushning fojiaviy taqdiri orqali Qodiriy oilaviy munosabatlarda mavjud muammolarni yanada keskinlashtiradi. Kumush va Zaynab o’rtasidagi qarama-qarshilikni faqat ikki ayolning shaxsiy kelishmovchiligi sifatida baholash to’g’ri emas. Ularning ziddiyati ortida ayolning oiladagi mavqei, erning tanlovi, kundoshlik va rashk kabi ijtimoiy-psixologik omillar turadi. Shuning uchun Kumushning fojiaviy o’limi birgina shaxsiy adovatning natijasi emas, balki o’sha davr oilaviy munosabatlaridagi ziddiyatlarning badiiy yakuni ekanligini biz asarda anglashimiz mumkin. Zaynab obrazi ham shu jihatdan e’tiborga loyiq. U Kumushdan farqli ravishda rashk, iztirob va ichki ziddiyatlar orqali ochiladi. Biroq Zaynabni faqat salbiy qahramon sifatida baholash ham biryoqlama bo’ladi. Chunki u ham o’z hayotini mustaqil belgilash imkoniyati cheklangan ayoldir. Uning Otabek bilan turmushi ham o’zining shaxsiy xohishidan ko’ra oilaviy qarorlar bilan bog’liq. Otabekning Kumushga bo’lgan muhabbati esa Zaynabning ruhiy holatini yanada og’irlashtiradi ya’ni bu bilan o’sha zamonda ayol kishining erki qanchalar panjaralanganini ko’rishimiz mumkin. Shunday qilib, Qodiriy Kumush va Zaynab obrazlari orqali ayolning ikki xil ruhiy holatini ko’rsatadi. Kumushda sadoqat, hay o va mehr ustun bo’lsa, Zaynabda rashk, iztirob va ichki beqarorlik kuchli namoyon bo’ladi. Ammo ularni birlashtiradigan jihat – har ikki ayolning taqdiri ham ijtimoiy muhit va oilaviy tartiblar bilan chambarchas bog’liqligidir.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida ham ayol obrazi muhim o’rin egallaydi. Asardagi Ra’no obrazi orqali ayolning go’zalligi bilan bir qatorda uning aql-zakovati, odobi va ichki dunyosi ham tasvirlanadi[4]. Ra’no Anvar bilan bo’lgan munosabatlari orqali o’z davrining oilaviy va ijtimoiy muhitiga qarshi qo’yilgan shaxsiy baxt masalasini naoyon etishini ko’rishimiz mumkin. Ra’noning taqdiri shuni ko’rsatadiki, o’sha davrda ayolning shaxsiy tanlovi jamiyatdagi mavjud tartiblar bilan doimo to’qnashib turgan. Ayolning kim bilan turmush qurishi, uning kelajagi va oilaviy hayoti ko’pincha o’z xohishidan ko’ra boshqa kishilarning qarorlariga bog’liq bo’lgan. Shu sababli guvohi bo’lamizki Ra’no obrazi orqali Qodiriy muhabbat masalasini ham ijtimoiy erkinlik masalasi bilan bog’lagani bejizga emas. Aslida jadidchilik davrida nafaqat ayollar balki xalqni ma’rifatga chorlovchi jamiki insonlarning erki o’z qo’lida bo’lmaganligi barchamizga sir emas.

Qodiriy romanlaridagi ayollarni birlashtirib turadigan jihatshundaki, ular o’z davrining axloqiy va ijtimoiy muhitida yashaydilar. Kumush, Zaynab va Ra’no obrazlarida ayolning shaxsiy hayoti bilan jamiyat talablari o’rtasidagi ziddiyat turli shakllarda namoyon bo’ladi. Kumush oilaviy ziddiyat qurboniga aylansa, Zaynab rashk va ruhiy iztirob ta’sirida fojiaga yuz tutadi, Ra’no esa o’z baxtini saqlab qolishga intilgan ayol sifatida namoyon bo’ladi. Shu jihatdan Qodiriy ayol obrazlari orqali jamiyatdagi oilaviy munosabatlarning inson taqdiriga ta’sirini ochib beradi.

Cho’lpon ijodida ayol masalasi yanada keskin ijtimoiy mazmun kasb etadi. Adib ayol taqdirini faqat oilaviy munosabatlar doirasida emas, balki jaholat, savodsizlik, ijtimoiy tengsizlik va inson erkinligining cheklanishi bilan bog’liq holda tasvirlaydi. Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi obrazi bunga yaqqol misoldir. Tadqiqotlarda ham Zebi timsoli orqali o’sha davr o’zbek

[3] Qodiriy A. O’tkan kunlar. – Toshkent: Navro’z, 2019

[4] Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Sharq, 2007

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

ayollarining og'ir, huquqsiz hayoti tasvirlangani qayd etilgan[5]. Zebi go'zal, sodda, xushovoz va beg'ubor qiz sifatida tasvirlanadi. Uning qalbida hayotga, bahorga, dugonalariga va atrofidagi insonlarga nisbatan samimiy munosabat mavjud. Biroq Zebi yashayotgan muhit uning ichki dunyosidagi go'zallik va erkinlikni to'liq namoyon etishga imkon bermaydi. Uning taqdiri otasi Razzoq so'fining qarashlari va jamiyatdagi mavjud tartiblar tomonidan belgilanadi. Zebining taqdirida ayolning huquqsizligi ayniqsa keskin namoyon bo'ladi. U o'z hayoti haqida mustaqil qaror qabul qilish imkoniga ega emasligi bilan Cho'lpon jadid ayollarini ochiqchasiga ko'rsatgan. Yosh qizning turmushga berilishi uning shaxsiy xohishiga emas, kattalarning qaroriga bog'liq bo'ladi. Hattoki onasi ham bu vaziyatga jim yig'lab qolishdan, qizining imkonsiz va ezilib ketayotganini kuzatib turib qushdek o'zini uyoqdan buyoqqa urib ovutishi ham o'sha davr ayollarining erki o'zida bo'lmaganligini va oilada ularning o'rni yo'qligini isbotlab turadi. Natijada Zebi o'zining beg'ubor yoshligi va orzularidan uzoqlashib, o'zi tanlamagan hayotga majburan kirib boradi. Cho'lponning Zebi obrazini yaratishdagi mahorati shundaki, u qahramonning tashqi taqdirini tasvirlash bilan cheklanmaydi. Zebining ruhiy holat, qo'rquvi, hayratlanishi, tushunmovchiligi va iztiroblari orqali ayolning ichki dunyosi ochib beriladi. Bu esa obrazni oddiy "jabrdiyda qiz" darajasiga ko'tarib, o'z davrining ijtimoiy fojiasini o'zida mujassamlashtirgan qahramonga aylantirib kutubxonda chuqur tasavvur uyg'otadi.

"Kecha va kunduz" romanidagi Zebi bilan bir qatorda Qurbonbibi obrazi ham muhim ahamiyatga ega. Qurbonbibi ona sifatida mehribon, farzandining baxtini o'ylaydigan, biroq o'zi ham patriarxal oilaviy muhitning ta'siri ostida yashadigan ayoldir. U o'z qizini himoya qilishni istaydi, biroq mavjud ijtimoiy tartiblar oldida uning imkoniyatlari juda cheklangan. Shuning uchun Qurbonbibi va Zebi obrazlari o'rtasidagi munosabat ham o'ziga xos ma'noga ega. Ona o'z qizining taqdiridan xavotirda bo'lsa-da, jamiyatdagi mavjud tartiblarni tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli uning mehribonligi va onalik tuyg'usi ham Zebi taqdirini o'zgartirish uchun yetarli bo'lmaydi. Tadqiqotlarda ham Qurbonbibi o'zbek onasining mehribon, sabrli va farzandparvar qiyofasini ifodalashi ta'kidlangan[6]. Cho'lponning ayol masalasidagi qarashlari uning hikoyalarida ham davom etadi. "Qor qo'ynida lola" hikoyasidagi Sharofatxon obrazi orqali yosh qizning o'z taqdirini mustaqil belgilay olmasligi va majburiy nikoh muammosi ko'tariladi. Sharofatxon yosh bo'lishiga qaramay, o'zining hayoti va kelajagi haqida qaror qabul qilish huquqiga ega emas. Uning taqdiri kattalarning xohishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan Sharofatxon obrazi Zebi obraziga yaqin turadi. Har ikkala qiz ham yoshligi, beg'uborligi va orzulari bilan ajralib tursa-da, ularning hayotiga o'zlaridan tashqaridagi kuchlar hukmronlik qiladi.

Cho'lponning "O'ktabr qizi" kabi asarlarida esa ayol obrazi faqat jabrdiyda qahramon sifatida emas, balki o'zining ichki dunyosi va hayotga munosabati bor shaxs sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan Cho'lpon ijodida ayol obrazining badiiy imkoniyatlari kengayib boradi. Ayolning jamiyatdagi mavqei haqida gapirar ekan, adib uning ruhiy olamiga, orzu-istaklariga va insoniy qadriga ham alohida e'tibor beradi. Jadid nasrida ayol masalasining muhim jihatlaridan biri ma'rifat muammosi bilan bog'liqligidir. Ayolning savodsizligi va uning ta'lim olish imkoniyatidan mahrumligi shaxsiy kamchilik emas, balki butun jamiyatning muammosi sifatida talqin qilinadi. Zebi taqdiridagi eng og'ir jihatlardan biri ham uning atrofidagi dunyoni anglash uchun zarur bo'lgan bilimdan mahrumligidir. Sud jarayonidagi holatlar orqali Cho'lpon savodsizlikning inson taqdiriga qanday ta'sir qilishini keskin ko'rsatadi. Bu masalada jadid adabiyotining umumiy ma'rifatparvarlik ruhini ham ko'rish mumkin. Jadidlar nazarida millat taraqqiyoti faqat erkaklarning bilim olishi bilan emas, balki xotin-qizlarning ham ma'rifatli bo'lishi bilan bog'liq edi. Chunki ayol oilaning ma'naviy muhitini shakllantiruvchi, farzand tarbiyasida asosiy o'rin tutuvchi shaxs sifatida qaraldi. Shu sababli ayolning ma'rifatli bo'lishi jamiyat kelajagi bilan bevosita bog'langan.

Jadid nasrida ayol obrazining yana bir muhim xususiyati – uning tashqi go'zalligi va ichki dunyosi birgalikda tasvirlanishidir. Kumushning go'zalligi uning odobi va sadoqati bilan, Ra'noning

[5] Cho'lpon. Kecha va Kunduz. – Toshkent: Akademnashr, 2021

[6] " Отражение семейных отношений в произведении А.Чулпана "Кеча ва кундуз" // Общество и инновации. Qodiriy

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

husni uning aql-zakovati bilan, Zebining tashqi go'zalligi esa uning beg'uborligi va samimiyligi bilan uyg'unlashadi. Demak, jadid adiblari ayolni faqat tashqi qiyofa sifatida emas, balki murakkab ruhiy olamga ega inson sifatida tasvirlashga intilgan. Shu bilan birga, jadid nasrida ayol obrazi orqali erkaklar jamiyatining mas'uliyati ham ko'rsatiladi. Otabekning oilaviy qarorlari, Razzoq so'fining qattiqqo'lligi, Akbarali mingboshining o'z xohishini ayol taqdiridan ustun qo'yishi kabi holatlar orqali adiblar ayolning erksizligiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muhitni tanqid qiladilar. Demak, ayolning og'ir taqdiri faqat ayollarning o'ziga tegishli muammo emas, balki butun jamiyatning ma'naviy holatini ko'rsatuvchi mezondir. Qodiriy va Cho'lpon ijodidagi ayol obrazlariga birgalikda qaralganda, jadid nasrining ayol masalasiga munosabati yanada aniq ko'rinadi. Qodiriyda ayol taqdiri ko'proq oila, muhabbat, kundoshlik va oilaviy munosabatlar orqali ocilsa, Cho'lponda ayolning huquqsizligi, savodsizligi va majburiy turmushi yanada keskin ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ikki adib ijodidagi umumiy jihat shundaki, ular ayol taqdirini jamiyatning umumiy ahvolidan ajratib tasvirlanmaydilar. Kumushning fojiasi, Zaynabning ruhiy iztirobi, Ra'noning o'z baxtini himoya qilishga intilishi, Zebining erksizligi, Qurbonbibining ojizligi va Sharofatxonning majburiy taqdiri turli xarakterdagi voqealar bo'lsa-da, ularning barchasini birlashtirib turuvchi jihat mavjud. Bu – ayolning o'z taqdirini mustaqil belgilash imkoniyatining cheklanganligidir. Shu sababli jadid nasridagi ayol obrazlari orqali nafaqat individual inson taqdiri, balki butun bir davrning ijtimoiy qiyofasi namoyon bo'ladi.

Ayol obrazlarining bunday tasviri jadid adabiyotining yangicha badiiy tafakkurga o'tganini ham ko'rsatadi. Avvalgi adabiy an'analarda ayol ko'pincha muhabbat yoki go'zallik timsoli sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, jadid nasrida u jamiyatdagi muammolarni ko'rsatuvchi faol badiiy vositaga aylandi. Ayolning taqdiri orqali yozuvchi jamiyatdagi jaholat, zo'ravonlik, savodsizlik, tengsizlik va ma'naviy qoloqlikni ochib berdi. Shu ma'noda, jadid adabiyotidagi ayol obrazi milliy uyg'onish g'oyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayolning erkinligi, ma'rifati va insoniy qadr-qimmatining tan olinishi jamiyatning yangilanishi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Ayol taqdiridagi fojia esa jamiyatning ham fojiasi sifatida ko'rsatiladi.

Xulosa

Jadid nasrida ayol obrazi masalasi o'zbek adabiyotining milliy uyg'onish davridagi eng muhim ijtimoiy- badiiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Jadid adiblari ayol taqdirini tasvirlash orqali xotin-qizlarning og'ir hayotini ko'rsatish bilan birga, jamiyatdagi jaholat, savodsizlik, majburiy nikoh, oilaviy tengsizlik va inson huquqlarining cheklanganligini ham badiiy ifodaladilar. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Kumush va Zaynab obrazlari oilaviy munosabatlarning ayol taqdiriga ta'sirini ko'rsatsa, "Mehrobdan chayon" dagi Ra'no obrazi ayolning shaxsiy baxti va tanlovi masalasini yoritadi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi va Qurbonbibi obrazlari esa ayolning huquqsizligi, savodsizligi va patriarxal muhitdagi og'ir holatini yanada keskinroq ifodalaydi. "Qor qo'ynida lola"dagi Sharofatxon kabi obrazlar esa yosh qizlarning o'z taqdirini mustaqil belgilash imkoniyatidan mahrumligini ko'rsatadi. Jadid adiblarining ayolga munosabatini faqat "ayollarni himoya qilish" g'oyasi bilan chegaralab bo'lmaydi. Ularning asarlarida ayol masalasi millatning ma'rifiy taraqqiyoti, oilaning ma'naviy holati, inson qadr-qimmati va jamiyatning kelajagi bilan bog'langan. Ayolning savodsizligi va huquqsizligi jamiyatdagi umumiy tanazzul belgisi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, uning ma'rifatli va erkin bo'lishi taraqqiyotning muhim shartlaridan biri sifatida talqin etilgan. Shunday qilib, jadid nasrida ayol obrazi oddiy badiiy qahramon doirasidan chiqib, butun bir davrning ijtimoiy va ma'naviy qiyofasini ifodalovchi obraz darajasiga ko'tarildi. Kumush, Zaynab, Ra'no, Zebi, Qurbonbibi va Sharofatxon kabi obrazlar orqali jadid adabiyoti o'zbek ayolining nafaqat dardini, balki uning insoniy qadrini, orzu-istaklarini va erkin hayotga bo'lgan ehtiyojni ham ko'rsatdi. Shu sababli jadid nasrida ayol masalasi bugungi kunda ham o'zining ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat.
2. Ismoiljonova N. "Jadid adabiyotida ayollar obrazi (Cho'lpon asarlari asosida)" // TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali. – 2024. – 31-son, 1-qism. – B. 22-27.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

3. Qodiriy A. O’tkan kunlar. – Toshkent: Navro’z, 2019.
4. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Sharq, 2007.
5. Cho’lpon. Kecha va Kunduz. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
6. “Отражение семейных в отношений в произведении Аю Чулпана “Кеча ва кундуз” // Общество и инновации. Qodiriy

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.